



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 1 (03)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil***

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**1**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

MUNDARIJA

<b>Tursunov A.M.</b> O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
<b>Abdulazizov A.A.</b> Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
<b>Jurayev D.A.</b> Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taʼsir etuvchi omillar.....	15
<b>Suyarov Sh.S.</b> Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
<b>Кариева Л.С.</b> Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
<b>Axtamov A.U.</b> Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka taʼsiri xususida.....	25
<b>Гафуров А.Б.</b> Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
<b>Абиткариев А.М.</b> Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
<b>Abdullayev D.G’.</b> Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
<b>Abdullayev M.G’.</b> Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
<b>Isakov A.Y.</b> Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
<b>Ashurova G.N.</b> Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
<b>Yo‘ldosheva M.F.</b> O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
<b>Қулматов А.А.</b> Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
<b>Babayev A.N.</b> Yoshlar bandligini taʼminlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
<b>Sharipov H.A.</b> Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
<b>Турдиева Я.</b> Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
<b>Vaxidov A.K.</b> Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
<b>Gaymatova D.G’.</b> Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
<b>Pardayev E.E.</b> Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
<b>Ibragimova S.A., Muradov Sh.D.</b> Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
<b>Адилов Б.Б.</b> Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
<b>Yoqubova Z.T.</b> Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi munosiblikni taʼminlashning konseptual asoslari.....	101
<b>Saidaxmedova N.I., Aripov A.S.</b> Oliy taʼlim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
<b>Abduvovyeva X.Sh.</b> O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga taʼsirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
<b>Умаров А.А.</b> Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибадорлигини ошириш... <b>Shoraximova Z.N.</b> «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	116
<b>Умурзакова З.С.</b> Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари.....	126
<b>Karimov X.O.</b> Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

<b>Aхунов М.А.</b> Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
<b>Аҳмаджонов С.С.</b> Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
<b>Abdullayeva Sh.А.</b> Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralarini boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
<b>Дусанов С.М.</b> Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
<b>Мамаражобов А.С.</b> Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
<b>Nigmatova D.Z., Amanov E.G’.</b> Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	157
<b>Ikromjonova M.U.</b> To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
<b>Madaminjonov A.O.</b> To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
<b>Jamoliddinova S.S.</b> Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
<b>Akbaraliyev A.E.</b> O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
<b>Эрматова С.И.</b> Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
<b>Maxsudov Sh.S.</b> To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
<b>Boyev X.I., Adilov B.B.</b> Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
<b>Raxmonova N.A.</b> Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
<b>Якубова Д.М.</b> Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
<b>Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y.</b> Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
<b>Matyoqubova D.O.</b> Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
<b>Rahmatullayeva F.</b> Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
<b>Mamajonov L.A.</b> Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
<b>Давруков Ф.У.</b> Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
<b>Убайдуллаева Н.Р.</b> Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
<b>Abdullayev A.A.</b> Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
<b>Alimov O.N.</b> O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
<b>Sultonov B.M.</b> Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
<b>Mamajonova N.A.</b> Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
<b>Sanaqulova A.</b> O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
<b>Nazarov N.N.</b> Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
<b>Toshpulatov A.M.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
<b>Sanaqulova A., Ochilova M.</b> Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
<b>Umarov I.Y.</b> Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

hamkorlik, kafolat va subsidiyalar tizimi moliyaviy resurslarning kichik biznesga yo‘naltirilishini rag‘batlantiradi. Umuman olganda, kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish kompleks yondashuvni talab qiladi, va tadqiqot natijalari bank-moliya siyosatini takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Schumpeter J.A. *The Theory of Economic Development*. — Cambridge: Harvard University Press, 1934.
2. Beck T., Demirgüç-Kunt A. Small and Medium-Size Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint. *Journal of Banking & Finance*, 2006.
3. Mishkin F.S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. — Pearson Education, 2019.
4. OECD. *Financing SMEs and Entrepreneurs: An OECD Scoreboard*. — Paris: OECD Publishing, 2022.
5. World Bank. *Small Business Finance and Economic Development*. — Washington, D.C., World Bank Publications, 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklari faoliyati va kredit portfeli bo‘yicha statistik ma‘lumotlar. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
7. Aliyev, B. & Usmonov, M. (2022). “Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish: muammolar va yechimlar”. *Innovatsion iqtisodiyot jurnali*, №8, 45–53.
8. Karimova, S. F. (2021). “O‘zbekiston banklar tizimida kichik biznes kreditlash samaradorligi”. *Moliyachi ilmiy jurnali*, №4, 67–75.
9. Nurmatov, X. (2024). “Raqamli bank xizmatlari va kichik biznes moliyalashtiruvini”. *Agrobiznes, fan va texnologiyalar jurnali*, №1, 102–110.

**UDK:369.542**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMG‘ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA‘MINOTI TIZIMINING HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

**ПЕНСИОННЫЕ СБЕРЕЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ СНАБЖЕНИЯ ПЕРСПЕКТИВЫ**

**PENSION SAVINGS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN LEGAL FOUNDATIONS AND DEVELOPMENT OF THE SUPPLY SYSTEM PROSPECTS**

**Alimov Oybek Narkulovich**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti “Ekonometrika va iqtisodiy modellashtirish” kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta‘minoti tizimining huquqiy asoslari, xususan, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining mazmuni, joriy etilish holati va mavjud muammolari tahlil qilingan. Muallif pensiya tizimida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, tizimdagi demografik xavflar, moliyalashtirishdagi qiyinchiliklar hamda nodavlat va raqobatbardosh fondlarni rivojlantirish zaruratiga e‘tibor qaratadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining samaradorligini oshirish uchun tijorat banklari va nodavlat moliyaviy institutlar ishtirokini ta‘minlash taklif etiladi. Shuningdek, raqamlashtirish jarayonida yuzaga kelgan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ham ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** pensiya tizimi, jamg‘arib boriladigan pensiya, huquqiy asoslar, demografik muammo, moliyaviy barqarorlik

В данной статье анализируются правовые основы пенсионной системы в Республике Узбекистан, в частности содержание, состояние реализации и существующие проблемы системы финансируемой пенсии. Автор обсуждает реформы, проводимые государством в пенсионной системе, демографически Сосредоточена на рисках, финансовых трудностях и необходимости развития негосударственных и конкурентных фондов. Предлагается обеспечить участие коммерческих банков и негосударственных финансовых учреждений для повышения эффективности системы финансируемых пенсий. А также цифровизация проблемы, возникшие в процессе, и предложения по их устранению Выдвинул.

**Ключевое слова:** пенсионная система, финансируемая пенсия, правовая база, демографические вызовы, финансовая стабильность

This article analyzes the legal foundations of the pension system in the Republic of Uzbekistan, in particular, the content, state of implementation and existing problems of the funded pension system. The author discusses the reforms being carried out by the state in the pension system, demographic Focuses on risks, financing difficulties and the need to develop non-governmental and competitive funds. It is proposed to ensure the participation of commercial banks and non-state financial institutions to improve the efficiency of the funded pension system. As well as digitalization problems that have arisen in the process and proposals for their elimination put forward.

**Key words:** pension system, funded pension, legal framework, demographic challenge, financial stability

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin boshlangan islohotlar aynan inson qadri va huquqlarini yuksak qadrlashga yo‘naltirildi. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslanilgani, xalqaro standart va qadriyatlarga e‘tibor qaratilgani muhim ahamiyat kasb etdi. Asta-sekinlik bilan inson manfaatlarini ustuvor qo‘yadigan yondashuv shakllandi, bu esa jamiyat hayotiga insonparvarlik g‘oyalarini chuqur singdirishga xizmat qildi. Insonning farovon yashashi, erkin va baxtli hayot kechirishi uchun qulay ijtimoiy muhit yaratildi, huquqiy munosabatlar tizimi mustahkamlandi. Bugun barcha harakat va tashabbuslar aynan inson uchun, uning hayoti va kelajagi uchun xizmat qilayotganini ko‘rish mumkin.

Prezident Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek: “Nogironligi bo‘lgan shaxslar, boquvchisini yo‘qotganlar, yolg‘iz keksalar, umuman, ko‘makka muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, albatta, ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi. Kelgusi yilda tadbirkorlik, biznes uchun yanada qulay muhit yaratish, yangi ish o‘rinlari tashkil etish, aholi daromadlarini ko‘paytirish, pensiya ta‘minotini yaxshilash bo‘yicha ham ko‘p ishlar qilishimiz lozim” [1].

Ma‘lumki, fuqarolarning pensiya olishga bo‘lgan huquqlari, ularni tayinlash va to‘lash tartibi “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida” 3-sentyabr 1993-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi qonuni [2] asosida tartibga solinadi. Mazkur qonun asosida davlat milliy pensiya tizimining huquqiy asoslari mustahkamlab qo‘yilgan. Shu bilan bir qatorda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi bo‘yicha ham O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 2-dekabrda qabul qilingan “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida” gi qonuni [3] qabul qilingan bo‘lib ushbu tizim fuqarolarni ular belgilangan pensiya yoshiga yetgan davlat pensiyasi bilan bir qatorda qo‘shimcha moddiy ta‘minlashdan usuli hisoblanadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining xususiyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu pensiya tizimida ishtirok etish ikki xil asosda amalga oshirilmoqda. Ulardan biri majburiy bo‘lib, bu yollanma mehnat bilan shug‘ullanuvchi barcha fuqarolarga tegishli. Shu bilan birga, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda harbiy xizmatdagi shaxslar bu majburiyatdan istisno qilingan. Ikkinchisi esa — bu ixtiyoriy ravishda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida qatnashishdir. Bu tizimda pensiya badallari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ish beruvchi tomonidan to‘lanadi. Shuningdek, to‘plangan mablag‘lar alohida fondga emas, balki Xalq banki tizimi orqali jamlanadi va pensiya yoshiga yetilgandan keyin to‘lab beriladi. Eng muhim jihatlardan biri shuki, har bir xodim uchun alohida hisob raqami ochilib, unga shaxsiy tartibda to‘lovlar amalga oshiriladi. Ushbu jamg‘armalar iqtisodiy tarmoqlarga investitsiya qilinib, foydali aylanishga yo‘naltiriladi. Bunda ish beruvchi o‘z xodimlari uchun har

oyda badallarni o‘tkazishi shart va bu to‘lov xodimning ish haqiga ta’sir qilmaydi. Chunki majburiy badallar xodim maoshidan emas, uning daromad solig‘i hisobidan ushlab qolinadi. Badallar miqdori uncha katta bo‘lmagani sababli xodimlar uchun og‘irlik qilmaydi. Jamg‘arilgan mablag‘lardan foydalanish huquqi pensiya olish huquqi paydo bo‘lganda yuzaga keladi. Bu tizimda muomala layoqatiga ega bo‘lgan har qanday fuqaro ixtiyoriy tarzda qatnashishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining amaldagi holati bir qator jiddiy muammolarni o‘z ichiga oladi. Eng avvalo, badallar miqdorining nihoyatda kamligi jamg‘armada to‘planadigan umumiy mablag‘ hajmiga salbiy ta’sir qilmoqda. Natijada pensiyaga chiqqan paytda fuqarolarga ajratiladigan to‘lovlar amaldagi yashash xarajatlarini qoplash uchun yetarli emas. Bundan tashqari, jamg‘arma faqatgina yagona tashkilot tomonidan boshqarilayotganligi, boshqaruvda raqobat yo‘qligi sababli samaradorlik past darajada qolmoqda. Afsuski, xususiy sektor yoki yirik kompaniyalar doirasida alohida jamg‘arma tuzilmalari tashkil etilmagan. Eng achinarlisi, bu tizimning imkoniyatlari haqida jamoatchilikka yetarli axborot berilmayapti, targ‘ibot ishlari sust olib borilmoqda va natijada fuqarolarning ishtirok etishga qiziqishi ham kamayib bormoqda.

Mamlakatimizda majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi hali to‘liq joriy qilinmagan bo‘lib, mavjud pensiya ta‘minoti asosan taqsimlovchi tizimga asoslangan. Bu esa demografik yuklamaning ortib borishi fonida tizimning moliyaviy barqarorligiga xavf tug‘diradi. Statistika ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024- yil holatiga ko‘ra pensiya oluvchilar soni 4,6 million kishidan oshgan, ularning 60% dan ortig‘i davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilmoqda [5].

Bugungi kunda global miqyosda demografik holat ancha murakkablashgan. ayrim mamlakatlarda tug‘ilish darajasining pasayib borayotgani, ayni vaqtda pensiya yoshiga yetgan aholining soni ortib borayotgani bu sohadagi muammolarni yanada keskinlashtirmoqda. Bundan tashqari, ishsizlik darajasining ham ko‘plab davlatlarda o‘sib borayotgani aholi farovonligiga salbiy ta’sir qilmoqda. Natijada, davlat tomonidan beriladigan pensiyalar yetarli darajada bo‘lmay, ayniqsa, ijtimoiy jihatdan zaif toifadagi — pensiya yoshidagi fuqarolarning asosiy ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlay olmayapti. Shu kabi holatlarni inobatga olgan holda, ko‘plab davlatlar mavjud taqsimlovchi tizimdan asta-sekinlik bilan voz kechib, moliyaviy barqarorroq va uzoq muddatli istiqbolga ega bo‘lgan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga o‘tishni afzal ko‘rmoqda.

M.D.Ziyadullayevning fikricha, “Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta’biricha aholining o‘rtacha yoshi 40 yosh va undan yuqori bo‘lgan davlatlarda demografik holat ancha izdan chiqqan, ya’ni davlat aholisi qarigan davlat deb hisoblanadi. Tug‘ilish kam, o‘rtacha umr ko‘rish yoshi uzaygan natijada aholi orasida pensionerlar ya’ni 60 yoshdan oshganlar aholining salmoqli qismini tashkil etadi. Demak bunday mamlakatda pensiya tizimi bo‘yicha keskin islohotlar tashkil etish talab etiladi. Bunda o‘z-o‘zidan davlat pensiyalari fuqarolarning ehtiyojini qondira olmaydi, shuning uchun ham pensiya tizimining nodavlat, xususiy, korporativ va jamg‘arib boriladigan turlarini shakllantirish va rivojlantirish talab etiladi.” [4]

Misol uchun o‘rtacha yosh: «2024-yil 1-yanvar holatiga Ozarbayjonda 34,3 yosh, Armanistonda 38,9 yosh, Belarus Respublikasida 42,1 yosh, Tojikistonda 22,8 yosh, Qozog‘istonda 31,9 yosh, O‘zbekistonda 28,9 yosh, Moldovada 39,9 yosh, Rossiyada 41,9 yosh, Qirg‘izistonda 28,3 yosh, Ukrainada 44,9 yosh, Yaponiyada 49,9 yosh, Fransiya 42,6 yosh, Italiyada 48,4 yosh, Kanadada 42,6 Germaniyada 46,8 yosh, AQShda 38,9 yoshni tashkil etadi». [2]

Pensiya tizimida tez-tez islohot o‘tkazishning asosiy sababi, davlatning pensiyaga oid majburiyatlarni bajarishi uchun moliyaviy resurslarning etishmasligidir va bu muammo aholining keksayib borishiga muvofiq kuchayib, murakkablashib boradi va mamlakatlarda vujudga kelgan iqtisodiy, ijtimoiy va demografik vaziyatlardan kelib chiqqan holda ahamiyat kasb etadi. [4]

O‘zbekiston pensiya tizimi majburiy badallar bo‘yicha belgilangan to‘lov tizimidan iborat bo‘lib, borgan sari davlat byudjetidan ko‘proq moliyalashtirilmoqda. So‘nggi 10 yilda Pensiya jamg‘armasi daromadlari 3,4 baravarga oshgan bo‘lsa, xarajatlari 5 baravarga oshgan. 2020-yildan pensiya to‘lovlarni moliyalashtirish uchun davlat byudjetidan doimiy ravishda transfert ajratilmoqda. 2022-yilda transfert miqdori 11 trln so‘m (jami xarajatning 24,7%) tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 15 trl so‘m (29%) ko‘zda tutilgan. 2030-yilda transfert miqdori 38 trln so‘mga yetishi prognoz qilinmoqda. [6]

Ushbu fikr va tahlillarga qo‘shilgan holda xulosa sifatida aytishimiz mumkinki jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini isloh qilish pensiya ta‘minoti tizimi istiqboli uchun juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Hozirgi vaqtda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining faqat bitta tashkilot tomonidan boshqarilishi bu sohada sog‘lom raqobat muhitining shakllanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Tizim samaradorligini oshirish uchun uni kengaytirish zarur, deb hisoblaymiz. Masalan, tijorat banklari yoki boshqa moliyaviy tuzilmalar doirasida alohida pensiya jamg‘armalarini tashkil etish orqali ushbu yo‘nalishda raqobatni kuchaytirish mumkin.

Shuningdek, har yili badallar miqdorining kamayib borayotgani fuqarolarning ushbu tizimga bo‘lgan ishonchi va qiziqishini susaytirmoqda. Natijada, jamg‘arma tizimi aholining nazarida yetarlicha ahamiyat kasb etmayapti. Shu boisdan, badallar hajmini oshirish fuqarolarni tizimga faolroq jalb etishning asosiy omillaridan biri bo‘lishi mumkin deb o‘ylaymiz. Iqtisodiy barqarorlikka ega yirik tashkilotlar qoshida alohida pensiya fondlarini joriy qilish amaliyotda o‘zini oqlashi mumkin, deb hisoblayman. Xususan, nodavlat pensiya fondlarini qonunchilik asosida tashkil etish va ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali tizimning jozibadorligini oshirish, aholini keng jalb etish va umuman jamg‘arma modelini yanada rivojlantirishga erishish mumkin.

Bundan tashqari, 2005-yilgacha fuqarolarning mehnat staji mehnat daftarchasidagi yozuvlar yoki korxonalaridan berilgan ma‘lumotnomalar asosida tasdiqlanib, bu qog‘oz shakldagi, moslashuvchan, ammo ishonchliligi past bo‘lgan tizim edi. 2005-2016 yillar oralig‘ida pensiya tizimida individual jamg‘arma prinsipi joriy qilinib, tashkilotlar Xalq bankiga pensiya badallarini umumiy summa ko‘rinishida topshirgan, biroq bu summalar ishchilar kesimida taqsimlanmagan. Natijada, hozirgi raqamlashtirilgan tizim orqali pensiya tayinlanayotganda o‘sha yillardagi mehnat staji yoki badallar aks etmay qolgan, bu esa fuqarolarning pensiya olish huquqlarini murakkablashtirib, stajni isbotlash uchun arxiv hujjatlari yoki guvohlar talab qilinishiga olib kelmoqda. Mazkur holat pensiya jamg‘armasi faoliyatida muammolarni keltirib chiqarib, tashkilotlar va banklar tomonidan mas‘uliyatli yondashuv yetishmasligi islohotlarning samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Raqamli tizim faqat mavjud ma‘lumotlarni ko‘rsatganligi sababli, elektron tarzda qayd etilmagan davrlar hisobga olinmaydi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun Xalq banking arxivdagi dalolatnomalari asosida raqamlashtirishni amalga oshirish, korxonalar bilan hamkorlikda audit o‘tkazish, fuqarolarga stajni mustaqil isbotlash uchun huquqiy asos yaratish, pensiya tizimiga oid barcha tarixiy ma‘lumotlarni yagona raqamli arxiv tizimiga kiritish, hamda sun‘iy intellekt asosida arxiv to‘lovlarini avtomatik aniqlash va ularni INPS hisoblariga biriktirish orqali mavjud muammoni bartaraf etish lozim hisoblanadi.

#### *Jamg‘arish jarayonining dinamik modeli*

Jamg‘arib boriladigan pensiya hisobining umumiy dinamik modeli quyidagicha ifodalanadi:

$$P_t = P_{t-1}(1 + r_t) + C_t$$

bu yerda:

- $P_t$  – t-davr oxiridagi jamg‘arma hajmi,
- $r_t$  – investitsiya daromadliligi,
- $C_t$  – t-davrdagi badallar hajmi.

Ushbu model jamg‘arma hajmining vaqt bo‘yicha o‘sish dinamikasini prognoz qilish imkonini beradi.

#### *Aktual muvozanat modeli*

Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligi quyidagi tenglik orqali ifodalanadi:

$$\sum_{t=1}^T \frac{C_t}{(1+i)^t} = \sum_{t=1}^L \frac{B_t}{(1+i)^t}$$

bu yerda:

- $C_t$  – badallar,
- $B_t$  – pensiya to‘lovlari,
- $i$  – diskont stavkasi,
- $R$  – pensiyaga chiqish yoshi,
- $L$  – kutilayotgan umr davomiyligi.

Mazkur aktual model orqali tizimning uzoq muddatli barqarorligi baholanadi.

*Investitsiya samaradorligi modeli*

Pensiya jamg‘armasi aktivlarini joylashtirishda Markov portfel modeli qo‘llanilishi mumkin:

$$\max E(R_p) = \sum_{i=1}^n w_i R_i$$
$$\sigma_p^2 = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n w_i w_j \sigma_{ij}$$

bu yerda:

- $w_i$  – aktiv ulushi,
- $R_i$  – kutilayotgan daromad,
- $\sigma_{ij}$  – kovariatsiya.

Bu model riskni minimallashtirgan holda daromadlilikni maksimal qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston uchun simulyatsion ssenariylar:

- Bazaviy ssenariy

Agar:

- badal stavkasi – 8%,
- real daromadlilik – 5%,
- mehnat staji – 35 yil,

bo‘lsa, o‘rtacha jamg‘arma miqdori:

$P_{35} \approx 250\text{--}300$  mln so‘m ga yetishi mumkin.

- Optimistik ssenariy

Investitsiya daromadliliği 7–8% bo‘lsa:

$P_{35} \approx 400$  mln so‘m ga yetadi.

*Xulosa*

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi O‘zbekiston uchun fiskal barqarorlikni ta‘minlash va kelajakdagi pensiya xavfsizligini oshirishda muhim instrument hisoblanadi. Iqtisodiy modellar asosida olib borilgan tahlillar tizimni aktual jihatdan muvozanatlashtirish, investitsion samaradorlikni oshirish va huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. «Xalq so‘zi», 2018-yil 29-dekabr. 271-272 (7229-7230).
2. “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasining qonuni. - Toshkent sh., 1993-yil 3-sentabr.
3. “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni. - Toshkent sh., 2004-yil 2-dekabr.
4. Ziyadullayev M.D O‘zbekiston Respublikasida pensiya tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish: Dissertatsiya. - Toshkent, 2023. - 250 b.
5. O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti tizimini takomillashtirish yo‘llari. Muqimov Normuhammad Normurod o‘g‘li. - International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 4 / ISSUE 5 / UIF:8.2 / M
6. O‘zbekistonda pensiya jamg‘armasi faoliyatining rivojlanish istiqbolari. Inoyatova Maksuda Palvonnazirovna. - Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta‘limning o‘rni hamda rivojlanish omillari